

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLAR REPREZENTATSIYASI

Yadgorova Shohista Sobir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ixtisosligi 1-bosqich magistranti,

Tadjiyeva Mastura Fayzullayevna

Termiz davlat universiteti, Fil.f.f.d., (Phd).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11543894>

Annotatsiya. Ushbu tezis ingliz va o'zbek tillarida shaxslararo munosabatlarni aks ettiruvchi maqollar representatsiyasiga bag'ishlanadi. Shaxslararo munosabatlarni yoritib berishda ingliz tilidagi qarindoshlik haqidagi maqollardan va ularning o'zbek tillaridagi ekvivalentlaridan foydalaniladi. Shuningdek, maqol haqida umumiy tushunchalar va maqollarda shaxslararo munosabatlarning o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: representatsiya, maqol, qarindoshlik, badiiy ijod, og'zaki ijod, janr.

REPRESENTATION OF PROVERBS REFLECTING INTERPERSONAL RELATIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abstract. This thesis is devoted to the representation of proverbs reflecting interpersonal relations in English and Uzbek languages. English proverbs about kinship and their equivalents in Uzbek languages are used to explain interpersonal relations. Also, general concepts about proverbs and the role of interpersonal relationships in proverbs are given.

Key words: representation, proverb, kinship, artistic creativity, oral creativity, genre.

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ПОСЛОВИЦ, ОТРАЖАЮЩИХ МЕЖЛИЧНОСТНЫЕ ОТНОШЕНИЯ, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.

Аннотация. Данная дипломная работа посвящена репрезентации пословиц, отражающих межличностные отношения, в английском и узбекском языках. Английские пословицы о родстве и их эквиваленты на узбекском языке используются для объяснения межличностных отношений. Также даются общие понятия о пословицах и роли межличностных отношений в пословицах.

Ключевые слова: представление, пословица, родство, художественное творчество, устное творчество, жанр.

Maqol - til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq folklorining ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini,

nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamosoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lganidir. Maqol xalqning ko‘p asrlar mobaynida ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to‘plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo‘lgan og‘zaki ijod janrlaridan biridir.

Maqol atamasi arabcha – qavlun –gapirmoq, aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo‘llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi. O‘zbek xalq maqollari ko‘pincha maqol, masal, matal, zarbulmasal, naql, hikmat, foyda, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, donolar yoki donishmandlar so‘zi, oqinlar so‘zi va otalar so‘zi atamaları bilan el orasida mashhur. Ko‘pincha ilmiy taomilda maqol atamasi iste’modadir.

Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo‘lib, o‘sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, “maqollar to‘plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati.”¹

Maqollarda shaxslararo munosabatlar ifodalash odamlarning o‘zaro ta’sirining asosini tashkil qiladi, tajriba, va shaxsiyatni shakllantiradi. Avlodlardan o‘tib kelayotgan maqol hikmatlaridan tortib, zamonaviy psixologik tadqiqotlarga, boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lish dinamikasini tushunish ijtimoiy hayotning murakkabliklarida harakat qilish uchun juda muhimdir. Ushbu qisqacha maqolada, shaxslararo munosabatlarning ahamiyati o‘rganiladi, asosiy tushunchalar, ularga ta’sir etuvchi omillar va ularning shaxsiy farovonlik va ijtimoiy dinamikaga ta’siri haqida ma’lumot beriladi. An’anaviy maqollarni yoki zamonaviy tadqiqotlarni o‘rganishdan qat’i nazar, umumiy mavzu saqlanib qoladi: shaxslararo munosabatlar hayotimizni chuqur shakllantiradi, shaxsiy o‘sisdan tortib, jamiyatdagi uyg‘unlikkacha ta’sir qiladi. Quyida shaxslararo munosabatlarni ifodalovchi qarindoshlik haqidagi maqollardan namunalar keltiriladi:

- “Love your relations but live not near them.”² – “Qarindoshlaringni sev, ammo ularga yaqin yashama” yoki “O‘zinga ehtiyot bo‘l, qo‘shningni o‘g‘ri tutma.”³

¹ Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 с.

² Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003.

³ Mirzayev T, Musoqluv A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari lug‘ati. – Toshkent, “Sharq”, 2013.

- “One loyal friend is worth ten thousand relatives.” – “Bitta sodiq do’st mingta qarindoshdan ustun.”

- “Even the Son of Heaven has his poor relations.” – “Hatto osmon o’g’lining ham qandaydir qarindoshlari bor.”

- “Everyone is a kin to the rich man.” – “Boy kishida qarindoshlar ko’p bo’ladi.”

- “Do not business with a kinsman” – “Qarindoshlar bilan umumiy ish yuritma” yoki “Pul munosabatlarni buzadi.”

- “Eat and drink with your relatives; do business with strangers” – “O’z qarindoshlarining bilan ye, ich; ishni begonalar bilan olib bor.”

- “A man should keep from the blind and give to his kin.” – “Inson ko’zi ojizga sadaqa bermasligi kerak, qarindoshga yordam berishi lozim” yoki “Siylayi Rahim qarindoshlardan boshlanadi.”

- “A man cannot bear all his kin on his-back.” – “Inson hamma qarindoshlarini o’z yelkasida ko’tarib yura olmaydi.”

- “Keep your own fish-guts for your own sea-maws.”⁴ – “O’zlarinigizning baliq ichaklaringizni xususiy dengizlaringizda saqlang” yoki “Tuqqan tuqqandan umid tutar.”

- “The hatred of relatives is the most violent.” – “Qarindoshlar nafrati nihoyatda shafqatsiz bo’ladi” yoki “Qadr bilmas qarindoshdan, qadr bilgan yot yaxshi.”

- “Blood is thicker than water – “Qon suvdan quyuqroq” yoki “Qarindoshlik har narsadan ustun.”

- “Blood will tell.” – “Qonidan ma’lum.”

- “What’s in the bone will come out in the flesh” – “Suyagida bo’lsa, jismiga chiqadi.”

- “One touch of nature makes the whole world kin.” – “Tabiatning birgina tutashgani butun dunyoni qarindosh qiladi.”

- “A bag full of flour and a purse full of money are the best relations in the world.” – “Un to’la xalta, pul to’la hamyon – dunyoda eng yaxshi qarindoshlar.”

- “A house is a fine house when good folks are within.” – “Ichida yaxshi odamlar yashaydigan uy yaxshi uydur.”⁵

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, shaxslararo munosabatlar bizning hayotimizda muhim o’rin egallaydi. Qadimgi maqollardan tortib, zamonaviy tushunchalargacha, mazmunli o’zaro

⁴ Webster’s – Webster’s New World Dictionary of the American Language. – New York: Simant Schuster, Inc., 1984. – P. 1613.

⁵ Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 288.

munosabatlarni rivojlantirishda aloqa, hamdardlik va tushunishning asosiy ahamiyatini ko'rish mumkin. Ushbu munosabatlarning qadr-qimmatini tan olish va ularni samarali boshqarish uchun ko'nikmalarni rivojlantirish orqali biz hayotimizni boyitishimiz va atrofimizdagilarning farovonligiga hissa qo'shishimiz mumkin. Shu jumladan, shaxslararo munosabatlarni aks ettruvchi maqollar har ikki ingliz va o'zbek tillarida ham insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi.

REFERENCES

1. Mirzayev T, Musoqluv A, Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari lug'ati. – Toshkent, “Sharq”, 2013.
2. Oxford Concise Dictionary of Proverbs. Oxford University Press, 2003.
3. Webster's – Webster's New World Dictionary of the American Language. – New York: Simant Schuster, Inc., 1984. – P. 1613.
4. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1984. – Б. 288.
5. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 171 с.